

## HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SINEKDOXANING O‘RNI VA VAZIFALARI

Berdiyeva Zebo Uralovna

f.f.f.d. (PhD).

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasini mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10694065>

**Annotatsiya.** Maqolada Metafora, sinekdoxa va vazifadoshlikdan tashqari, ma’no ko‘chishining qorishiq holda qo‘llanishi hamda metafora-metonimiya, metonimiya-sinekdoxa tarzida uchraydigan ko‘chimlar og‘zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham ko‘p uchrashi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kam uchrashi, estetik funksiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turishi olam va ijtimoiy borliqqa munosabati hamda unda tutgan o‘rni muammo sifatida o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** metafora, metonimiya, sinekdoxa, metaforik obraz, badiiy ko‘chim, istiora g‘oyaviy-estetik yangilanish, meditativlik.

### THE ROLE AND FUNCTIONS OF SYNECDOCHE IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY

**Abstract.** In the article, in addition to metaphor, synecdoche, and idiom, the mixed use of meaning transfer and metaphor-metonymy, metonymy-synecdoche transfers are common both in oral speech and in fiction. In "Dictionary of Literary Studies" metonymy is rare compared to metaphor in fiction literature, especially in modern literature where metaphorical thinking is the leader, and in terms of aesthetic functionality it is inferior to metaphor, its relation to the world and social existence and its role in it are studied as a problem.

**Key words:** metaphor, metonymy, synecdoche, metaphorical image, artistic transfer, metaphor, ideological-aesthetic renewal, meditateness.

### РОЛЬ И ФУНКЦИИ СИНЕКДОХИ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

**Аннотация.** Помимо метафоры, синекдохи и функции, как в устной речи, так и в художественной литературе распространено смешанное употребление переноса смысла и метафоры-метонимии, метонимии-синекдокса. В «Словаре литературоведения» метонимия встречается редко по сравнению с метафорой в художественной литературе, особенно в современной литературе, где метафорическое мышление является лидером, а по эстетической функциональности она уступает метафоре, ее отношению к миру и социальному существованию и ее роль в нем изучаются как проблема.

**Ключевые слова:** метафора, метонимия, синекдоха, метафорический образ, художественный перенос, метафора, идейно-эстетическое обновление, медитативность.

Sinekdoxa (yun. Synekdoxe– nisbat berish ) – ko‘chim turi, butun-qism aloqasi asosidagi ma’no ko‘chishi, metonimiyaning bir ko‘rinishi. Sinekdoxada ham ma’no aloqadorlik asosida ko‘chadi, shu sababli unga metonimiyaning bir turi (uning miqdoriy ko‘rinishi) sifatida qaraladi<sup>1</sup>.

Rus tilshunosligida – metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi to‘rt tur ajratishga alohida urg‘u berilsa-da, ayrim tadqiqotchilarning ishlarida tafovut mavjud. Masalan, N.M.Shanskiy<sup>2</sup>, D.N.Shmelev<sup>3</sup>lar metafora, metonimiya va vazifadoshlik turlarini e’tirof etishadi va badiiy ko‘chimning sinekdoxa va boshqa ko‘rinishlarini shu ikki turning tarkibiga kiritishadi.

Umuman olganda, dunyo va o‘zbek tilshunosligida bugunga qadar bu masalada yagona xulosaga kelinmagan. Ayni shu holatni adabiyotshunoslikda ham kuzatish mumkin. Trop, majoz, ko‘chim xususidagi fikrlar turlichaligi ba’zi chalkashliklarga olib keladi. Masalan, metaforaning majoz, istiora kabi turlicha nomlar bilan ishlatilishi hozirga qadar davom etmoqda.

Ayrim olimlar fikriga ko‘ra: “ma’no ko‘chish turlarini kengaytirmagan ma’qul, balki ularni ixchamlashtirish muhimroq, chunki kontekstda metafora bilan vazifadoshlikni, metonimiya bilan sinekdoxani farqlashda muammolar yuzaga kelmoqda. Zero, ular o‘rtasidagi farq unchalik katta emas”. Mazkur tasnif sobiq sho‘ro tilshunosligida ommalashgan, ta’lim tizimiga ham joriy etilgandi. Turkiy tillar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlarning aksariyati ma’no ko‘chish usullari tasnifida rus tilshunoslari an‘analari izidan borishadi<sup>4</sup>. Shuningdek, tilshunos Ye.Berdimuratov ma’no ko‘chish usullaridan ikki turini–metafora va metonimiyanigina qayd etadi va ularning qolganlarini ushbu ikki turning ichida qaraydi<sup>5</sup>. Tatar tili bo‘yicha darslikda K.S.Sabirov ma’no ko‘chish turlarini yana bittaga ko‘paytiradi: o‘xshashlik, aloqadorlik, vazifadoshlik, qamrash doirasiga ko‘ra, xususiyat yaqinligiga ko‘ra.

O‘zbek tilshunosligi ham, aksariyat boshqa milliy respublikalar tilshunosliklari kabi yuqorida aytilgan A.A.Reformatskiyning tasnif izidan borishadi. Ijodning yagona va o‘zgarmas quroli bo‘lgan so‘zdan o‘z iste’dodi, uslubi, poetik maqsadiga muvofiq foydalanadi. Zahmatkash tilshunos M.Mirtojiyevning shu masala bilan bog‘liq mulohazalarida bir so‘z bir vaqtning o‘zida ham badiiy tasvir usuli, ham ifoda vositasi ekanligiga diqqat qilingan. Masalaning e’tiborli jihati shundaki, ayni shu xususiyati bilan badiiy tasvir va ifoda vositalari lingvopoetik xususiyat kasb etadi. Chunki she’rdagi fonetik (alliteratsiya, assonans,) semantik (allegoriya, metafora, epiteta, metonimiya, sinekdoxa), sintaktik ( ritorik so‘roq, ruhiy parallelizm), leksik (arxaizm, dialektizm) kabi usullari lirik ifodaviylikni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Atoqli otlarning turdosh otga ko‘chishiga ko‘chimning bir turi sifatida qarashlar mavjudligini ko‘rib chiqqan edik. Jumladan, rus tilshunosligida metaforalarni tadqiq etganlardan biri Ye.M.Galkina-Fedoruk ham atoqli otning turdosh otga o‘tishi; vazifadoshlik ma’no ko‘chish usullari qatorida ko‘rsatib o‘tadi<sup>6</sup>. Professor D.Quronovning umumiy tahriri ostida nashr etilgan

<sup>1</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.–Б 277-278.

<sup>2</sup> Шанский Н.М.Очерки порусскому словообразованию и лексикологии. –М.:Высшая школа,1959.

<sup>3</sup> Шмелев Д.Н.Очерки посемасиологи и русского языка.–М.: Просвещение,1964.(–244с.)–С.57- 65

<sup>4</sup> Мусабоев Г.Г. Современный казахский язык.–Алма-Ата:Мектеп,1959; Жафаров С. Муасир азарбайжан дили. – Баку: Маариф,1970.–С.21-23.

<sup>5</sup> Бердимуратов Е. Ҳазирги қарақалпақ тилининг лексикологияси.– Ноқис: Қарақалпақстан, 1968.–Б.55-67.

<sup>6</sup> Е.М.Галкина-Федорук.Современный русский язык.Лексика. – М., 1954. –С.54-56.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ham badiiy asarlarda atoqli otlarning turdosh ot ma’nosida qo‘llanishi sinekdoxalarning bir turi sifatida qayd etilgan<sup>7</sup>.

Rauf Parfi “Abdurauf Fitrat” she’rida yozadi:

Riyozat qamchisi kabi savaydir,  
Ulkan yomg‘ir buzg‘un tanizorimni...  
Ulug‘ Turkistonni kimlar sevmaydir?!  
Fir‘avnlr sevmas mening borimni<sup>8</sup>.

G‘aflatga g‘arq insonni riyozatgina halokatdan qutqara oladi. Buzilgan, xarob tanizor, ulkan yomg‘ir, riyozat so‘zlari – she’rning ochqichi. Fir‘avn qadimgi Misr hukmdorining xos ismi, unga sig‘inish o‘z davrida urf bo‘lgan. Qur‘oni karimda ham Fir‘avn “Baqara” va “Arof” to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Fir‘avn Muso va unga ergashganlarga qasd qilib ularning ortidan tushadi. Shunda dengizdan o‘n ikkita yo‘l ochiladi va Muso lashkari omon-eson o‘tib ketadi, keyin ularni quvib kelayotgan Fir‘avn lashkarlari dengiz o‘rtasigacha kirib kelganlarida Alloh taolo suvni yurgizib yuborgani va Fir‘avn o‘z lashkari bilan g‘arq bo‘lib, halok bo‘lgani bayon etilgan. Shoir fir‘avnlr deganda mana shu toifadagi johil, ma’rifatsiz, zolim, kibrga berilgan kishilarni nazarda tutgan.

Asqar Mahkam esa bo‘lak (qorin) orqali butun (inson)ni shunday ifodalaydi:

Ulug‘ el ko‘nglini sof qildi toat,  
Muslim nurlar indi ayqirgan qonga.  
Qorni uchun xalqni qilmadi g‘orat,  
Xanjarini qalqon qildi iymonga<sup>9</sup>.

Ulug‘ el – epiteta, muslim nurlar – eptieta, ayqirgan qon – eptieta, qonga indi- metafora, qorni uchun – sinekdoxa. Uchinchi satrda qo‘llangan “qorin” so‘zi insonning o‘zini, kontekstda esa nafsni anglatib kelmoqda. Sinekdoxa xalq jonli tilida ham ko‘p qo‘llanadi. Sinekdoxa orqali so‘zning ta’siri ortadi. Masalan, “vafot etdi” birikmasiga nisbatan adabiy tilda ishlatiladigan “dunyodan ko‘z yumdi”, “yuragi urishdan to‘xtadi” sinekdoxalarining bo‘yoqdorligi yuqori, ma’no ottenkasi kuchli. Keltirilgan parchadagi sinekdoxa “nafs” so‘zi bilan almashtirilsa, she’rning ta’sirchanligi pasayadi.

Islomiy manbalarda ushbu olam “Bo‘l”, ya’ni “Kun fayakun” so‘zidan yaralganini ko‘pgina ulug‘ allomalarimiz ta’kidlashgan. Jumladan, shoir Asqar Mahkam so‘z borasida eng zaruriy jumlaning keltiradi: “So‘z va ruh bilan yolg‘iz qolgan shoir iymonli bo‘lsa, bu jarayon ibodatdir. Agar bordi-yu so‘z bilan yolg‘iz qolgan shoir jismida nafsoniyat ustun bo‘lsa, bu aysh va sahovat. Undan ham battar – fitna va buzg‘unchilik bo‘lishi mumkin. Iymonli so‘z va ruhning bir vujudga kechadigan umri xayrli toat bo‘lib, o‘z sohibini ezguliklar sari eltadi, o‘zgalarga ham yaxshilik keltiradi...”

Darhaqiqat, lisonda mavjud so‘zlar, uning hech bir harfini zoye qilmaganimizda, bizning toat-ibodatimizga aylanishi mumkin. Sharq dunyosida milliy pedagogikaning o‘ziga xos ko‘rinishi – kishilarni yaxshilikka da’vat qilish, har bir voqea-hodisadan kerakli to‘g‘ri xulosa chiqarishga

<sup>7</sup> Qarang: Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademiashr, 2013. –Б.277-278.

<sup>8</sup> Парфи Р. Сайланма. Тошкент: Академнашр, 2013.. –Б.318.

<sup>9</sup> Маҳкам Асқар. Ҳақ. Сайланма. Душанбе, Адиб, 1998. –Б.284.

chorlash pand-nasihat, bedilxonlik, navoiyxonlik singari suhbatlar orqali amalga oshgan zakovat va fasohat sohiblari ishtirok etgan bunday adabiy kechalardagi suhbatlarda jumlar va uning tarkibiy qismi – so‘zlarning ma’no qatlari sinchilik bilan o‘rganilgan. Sharq adabiyotining hazrat F.Attor, J.Rumiy, A.Jomiy, A.Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi mutafakkirlari ijodida “so‘z”ga e’tibor qaratiladi va “kalima” insonni Allohga qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

*So‘z din o‘lukning tanida ruhi pok,  
Ruh dog‘i tan aro so‘z din halok*

So‘z ila so‘ngan ruhni ko‘tarish yoki aksincha, ko‘tarinki ruhiyatni bir zumda so‘ndirish mumkin. “Hayrat ul-abror”da “so‘z”ga ehtirom ko‘rsatar ekan, hazrat Navoiy uni jonbaxsh ne‘mat sifatida qadrlaydi va jonsizga jon bag‘ishlay olish xislatini aytadi. Kunlik hayotimizda so‘zlardan foydalanib o‘z ishlarimizni bitiramiz, ehtiyojlarimizni qondiramiz, hattoki ruhimiz uchun quvvat olib turamiz. Ammo ko‘p holda bu so‘zlarni biz nimalarga va qanday maqsadlar yo‘lida sarflayotganimizga ahamiyat bermaymiz. Yoki, bizga ne‘mat atalmish “so‘z” qudrati berilmaganida qanday ahvolga tushishimiz mumkinligi haqida fikr yuritmaymiz. Hozirda, ko‘pchiligimiz, balki barchamiz, jamiyat, oddiy kishilar, turli sohaning olim va mutaxassislari ham so‘zga nisbatan beparvo bo‘lmoqdamiz.

Zero, dunyoni inson o‘zgartiradi, insonni esa uning yuragi. “So‘z” esa, yurakni boshqaradi.

Ba‘zan huda-behuda aytilayotgan, eshitilayotgan va o‘qilayotgan so‘zlar qalblarimizni o‘ldirib, ruhimizni esa zaiflashtirib, aqlimiz va teran fikrlash qobiliyatimizni xiralashtirib, insoniy ne‘matlardan bizni mosuvo qilib borayotganini payqamay qolamiz. Hadislarda tilni saqlash odobi xususida bejiz gapirilmagan: Abu Hurayradan, Alloh undan rozi bo‘lsin, rivoyat qilindi:

Payg‘ambar (s.a.v.) aytdilar: “Kishi musulmonligining go‘zalligi ma’nosiz so‘zlarni tark qilishligidir”. “So‘z” boshqarish va ta’sir etish layoqatiga ega ekan, undan unumli foydalansakkina ko‘zlangan maqsadga erishamiz va ruhimizni poklab, harakatlarimiz, fe‘l-atvorimizni isloh qila olamiz.

Buning uchun amallarimizni so‘z qudrati darajasiga ko‘tarishimiz, yon-atrofimizdagilarga ixcham, oqibatli so‘z va xolis xizmatlarimiz bilan ibrat bo‘la olishimiz kerak. Ayniqsa, bu har bir yosh filolog, adabiyotshunos zimmasidagi mas’uliyatli vazifadir. Chunki filolog so‘z bilan muomala qiluvchi san’atkor. Uning bu mahorati oddiy kishilarga ta’sir etmay iloji yo‘q. Filolog nafaqat so‘z terishni, balki uni ommaga yetkaza olishni, o‘z navbatida axborotni to‘g‘ri, hissiy ta’sirlarsiz ijobiy qabul qilishni va ularga foydali javob berishni ham o‘rganishi, muntazam o‘z ustida shug‘ullanib, ruhiyatini sayqallab borishi kerak.

Shunda u jamiyatga xizmat qilgan, xalqni ezgulikka chorlagan chinakam fidoiy insonga aylanadi. Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda: “Odam erkin ekanman deb og‘ziga kelgan narsani valdirashi, ko‘ngliga kelgan noma’qulchilikni qilishi mumkin emas... Ijod erkinligi xalqqa, vatanga fidokorlik bilan xizmat qilish erkinligidir... Bugungi dunyoda yovuzlikka qarshi turadigan, muqarrar tarzda undan g‘olib keladigan qudrat bor – bu muhabbatdir, bu mehrdir”.

*Bugun so‘zlar Ayyubdek xasta  
yo barchadan u ham to‘ydimi...  
Menga barglar shivirlar asta:  
“Endi birov she‘r o‘qiydimi!...”  
Nahot So‘zdan qolmadi nishon*

*garchi ular bozorda lak-lak...*<sup>10</sup>

Asqar Mahkam ijodida har bir soʻzning oʻzgacha taʼsir kuchi, joni bor deyish mumkin. “Tabriz daftari” yoki “Analhaq” kitobini oʻqigan sheʼrxon buni darrov fahmlaydi. Unda til soʻzlari emas, balki dil soʻzlari bitilgandir.

Soʻzning hozirgi ahvolini xasta Ayyub paygʻambar (a.s.)ga oʻxshatgan shoir, shaxsiy manfaatlar tobora kuchayib, inson kimligini unutib qoʻyayotganini, “soʻz” esa oʻz taʼsirini yoʻqotgan; endilikda faqat kishilarning manfaat va ehtiyojlari yoʻlida xizmat qilayotgan oddiy muomala vositasiga aylanib borayotganidan soʻzlaydi. Va: *Menga gullar shivirlar giryon: “Bugun sheʼring kimga ham kerak!..”* – deya afsuslanadi. Chunki nazm va nasr baʼzi erkin “ijodkorlar” tomonidan eplasa boʻladigan sanʼat turiga, oddiy qiziqish yoki xususiy tijorat yoʻliga aylanib borayotganidan, ular taʼsirida esa adabiyot olamida soʻzning qadrsizlanishi kishilar uchun ijobiy natijalar bera olmayapti.

Balki, shu sababdan kamdan kam kishilar kitoblarga, zamonaviy nazm va nasrga eʼtibor berishadi. Adabiyot uchun oddiy hisoblangan narsani qoʻllab-quvvatlashimiz, unga rahm aylab koʻklarga koʻtarishimiz oqibatida badiiy ijod ommaviy erkin mulkka, koʻpchilik qilishi mumkin boʻlgan oson vazifaga aylanib bormoqda.

Vaholanki, sanʼatda ham, kuylash, rasm chizish, musiqa bastalash kabi jarayonlar ilohiy ilhom bilan amalga oshadi. Yuzaki hamda shuhratparastlik niyatida qilingan har qanday harakatning muxlislari muvaqqatdir. Bugun oʻrtamiyona ijodkorga porloq kelajak tilaganimiz bilan, ertaga uning asarlari uzoq vaqt yashab qolishiga hech kim kafolat bera olmaydi. Ijodning asosiy belgisi unda yashaydigan ilhom bilan namoyon boʻladi.

Ilhomsiz ijod esa, quruq harakatdan boshqa narsa emasdir. Ijodkorlikka daʼvogar shaxs, avvalo ijodni anglash baxtiga sazovor boʻlmogʻi kerak. Bu oʻta murakkab ishdir. Kitobxon saviyasi yozuvchi nigohini koʻra olishi uchun teran dunyoqarashga, yuksak maʼrifat va qalb pokligiga sohib boʻlishi talab etiladi.

Umuman olganda, hech qaysi ijodkorning imkoniyati cheksiz emas, oʻz navbatida adabiyot ulkan va cheksiz ummondek koʻrinadi; aslida uning ham mezon nuqtalari mavjud.

Chunki adabiyotdan asl muddao “adab”dir. Ijodkor bu mezon nuqtalarida harakatlanmas ekan, maqsadsiz qalam surar ekan, uning mahsuli avlodlarga meros boʻlib qoladigan asarlar qatoridan oʻrin ololmaydi. Tabiiyki, nega bugungi kunning Hofizlari, Saʼdiylari, Navoiy va Jomiyarlari chiqmayapti degan savolga javob, aynan shu erda koʻrinadi.

Koʻngil va ruh maʼnoga oshuftadir. Jismning asosi esa jon va ruhda. Inson qachon boʻlmasin, shaklbozlikdan bezib, yana maʼnoga qaytadi. Oʻshanda chang bosib oʻqilmayotgan devonlar, kulliyotlar, ruboiylar, hikmatlar qoʻlga olinadi. Qalam ahli Navoiy va Jomiy boʻlishga intiladi. Nazm gulistonining cheksiz maʼrifat taratuvchilari yuzaga keladi.

Adabiyotga havas, ustozlar ijodiga mehr, libosining ziyanatiga aylandi. Navoiy, Hofiz, Rumiy, Shams Tabriziy kabi yetuk allomalar bir-birlariga hamohang boʻlganlaridek, Hirot, Sheroz, Balx-u Tabriz ham aziz avliyolar va ustozlar qadamidan sharaflandi va hozirga qadar bu maskanlar biz uchun muborakdir. Agar teran nigoh tashlasak, bu sheʼrlar zamirida hikmat va ibrat dunyosini koʻra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam tasavvuf ruhiyatiga murojaat qilganida

<sup>10</sup> Маҳкам Асқар.Ҳақ.Сайланма. Душанбе, Адиб, 1998.



uning qoidalari va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g‘azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o‘z ijodi zamirida Hofizdek ustozlar turishini tavozelik bilan tan oladi. Navoiy ta’biri bilan aytganda, o‘z ijodi va hayotidan masrurlik, unga mahliyo bo‘lishlik shoirga mutlaqo begonadir.

She’rlardagi keskir qarashlar, shirin va ba’zan achchiq so‘zlar shoir ijodida haqqoniy tilga olingan. Ya’ni, u yasama so‘z termaydi, hijron deganida, boshqalar ham qo‘shilib yonadi.

Ishq deganida, o‘zgalar ham oshiq bo‘ladi, shoir nadomat chekkanida, o‘quvchi ham qo‘shilib, o‘sha ruhiy holga beixtiyor tusha oladi. Shundan bilish mumkinki, Asqar Mahkam Haq yo‘lida haqiqatni kuylab o‘tgan yirik shoirlardan biri bo‘lgan. Uning ijodidan bahra olgan qalb esa, hamisha osudalikda, shoir dunyosida u bilan birga yashaydi.

Sinekdoxaning spetsifik tabiatini yondosh-o‘xshash hodisalar qiyosida tavsiflash ijodkorlarning kutilmagan yangi ko‘chimlar kashf etishga, shu orqali voqelikning metaforik qiyofasini yorqinroq aks ettirishga harakat qilayotganliklarini ko‘rsatadi.

#### REFERENCES

1. Куронов Д. Адабиётшунослика кириш. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси илмий нашриёти, 2004. –Б.209.
2. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Тошкент: 2001;
3. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: 1979;
4. Афоқова Н. Бизнинг эра. – Тошкент: Ижодпресс, 2019. –Б.72.
5. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.366.
6. Маҳкам Асқар.Ҳақ.Сайланма. Душанбе, Адиб, 1998. –Б.284.
7. Парфи Р. Сакина. – Тошкент: “Мухаррир”, 2013. –Б.376.